VIII.XIZMATLAR

2023- yil yanvar-iyun oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha hajmi 5 877,3 mlrd. so‘mni tashkil qildi va 2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o‘sish 109,5 foizni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar,
birlikda *(1- aprel holatiga ko‘ra)*



2023- yil 1-iyul holatiga ko‘ra xizmat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonining (17 972 birlikni) 14 873 birligi kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi. Ularning xizmatlar sohasiga oid faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonidagi ulushi 82,8 % ni tashkil etdi.

XIZMATLAR SOHASINI STATISTIK HISOBI

Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko‘rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o‘z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Bu mamlakatning savdo, professional va maishiy xizmatlar ko‘rsatishga ixtisoslashgan iqtisodiy tarmog‘idir.

Xizmatlar sohasi, moddiy ishlab chiqarish bilan taqqoslaganda, bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Birinchidan, tovarlardan farqli o‘laroq, xizmatlar asosan bir vaqtning o‘zida ishlab chiqariladi va iste‘mol qilinadi va ularni saqlash man etiladi. Ikkinchidan, xizmat ko‘rsatish ko‘pincha mahsulotlar ishlab chiqarishga ketgan vaqtdan farqlanadi, garchi sanoatda texnik xizmat ko‘rsatish roli ortib bormoqda, bu uskunalarni ta’mirlash, sotishdan keyingi xizmatlar va tovarlarni sotish bilan bog‘liq boshqa xizmatlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Aytish joizki, ko‘p hollarda xizmatda mahsulot elementi mavjud, xuddi mahsulot sotishda xizmat elementi mavjud bo‘lgani kabi.

Xizmatlar – iste’molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o‘zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko‘maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

2023- yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar kesimida ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi

Shahar va tumanlar nimui	*mlrd. so‘m*	*O‘sish sur’ati, % da*	*Jamiga nisbatan ulushi, % da*
Xorazm viloyati	**5 877,3**	**109,5**	**100,0**
Urganch shahri	2 186,8	113,4	37,2
Xiva shahri	295,9	119,3	5,0
tumanlar:			
Bog‘ot	336,3	107,5	5,7
Gurlan	290,4	106,6	5,0
Qo‘shko‘pir	295,9	109,5	5,0
Urganch	450,9	106,2	7,7
Hazorasp	417,6	106,9	7,1
Tuproqqal’a	134,2	114,7	2,3
Xonqa	403,4	107,3	6,9
Xiva	301,0	100,5	5,1
Shovot	296,7	107,0	5,0
Yangiariq	251,2	102,6	4,3
Yangibozor	217,0	106,1	3,7

Aholi jon boshiga xizmatlarning asosiy ko‘rsatkichlari





Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar hajmi va o‘sish sur’ati *(2023- yil yanvar-iyun)*	Hajm, ming. so‘mda	O‘sish sur’ati, % da
Xorazm viloyati	2 991,0	107,6
Urganch sh	14 501,6	110,9
Xiva sh	3 041,2	117,1
Bog‘ot	1 940,8	105,5
Gurlan	1 873,3	104,9
Qo‘shko‘pir	1 649,5	107,7
Urganch	2 145,9	104,3
Hazorasp	2 058,0	105,0
Tuproqqal'a	2 305,8	112,1
Xonqa	2 063,6	105,6
Xiva	1 975,3	98,9
Shovot	1 670,9	105,3
Yangiariq	2 070,5	100,9
Yangibozor	2 379,2	104,3

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlarni rivojlantirish o‘rtacha aholi jon boshini rivojlanish ko‘rsatkichiga muhim ta’sir ko‘rsatmoqda. Masalan, aholi soni nisbatan kam bo‘lgan Bog‘ot va Urganch tumanlarida aholi jon boshiga ko‘rsatkichlar aholi zich joylashgan tumanlar: Urganch, Urganch va Urganch tumanlariga qaraganda yaxshiroq ko‘rinadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sanoati rivojlangan hududlar (qazib olish sanoati bundan mustasno) Urganch va Urganch tumanlari hamda, Xiva shahrida xizmatlar sohasining aholi jon boshiga o‘rtacha ko‘rsatkichlari Qo‘shko‘pir, Bog‘ot va Hazorasp tumanlariga nisbatan yuqori ekanligini ko‘rsatmoqda.

IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO‘YICHA ISHLAB CHIQARILGAN XIZMATLAR

Bugungi kunda xizmatlar sohasi zamonaviy milliy iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biridir. Ushbu tarmoq an’anaviy faoliyat bilan cheklanib qolmaydi, u jamiyat hayotida o‘z ishtirokini doimiy ravishda kengaytirib boradi, ijtimoiy ishlab chiqarishga integratsiyalashgan, shuningdek, iqtisodiyotning deyarli barcha sohalari bilan o‘ziga xos aloqalar bilan bog‘langan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan bozor xizmatlari

Xizmat turlarining nomi	*Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘mda*		*Ulushi, % da*	*O‘sish sur’ati, % da*
	2022- y yanvar-iyun	*2023- y yanvar-iyun*		
Xizmatlar – jami	**4 812,0**	**5 877,3**	**100,0**	**109,5**
shu jumladan asosiy turlari bo‘yicha:				
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	255,8	324,5	5,5	124,8
moliyaviy xizmatlar	970,0	1 359,5	23,1	127,9
transport xizmatlari	1 118,1	1 274,4	21,7	101,2
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 038,8	1 190,8	20,3	101,3
yashash va ovqatlanish xizmatlari	141,7	187,9	3,2	103,4
savdo xizmatlari	1 178,8	1 356,1	23,1	103,3
ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	123,2	141,8	2,4	106,1
ta’lim sohasidagi xizmatlar	263,5	321,3	5,5	105,7
sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	100,4	130,3	2,2	111,1
ijara xizmatlari	95,9	106,7	1,8	102,7
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar	196,4	235,2	4,0	105,8
shaxsiy xizmatlar	165,4	209,2	3,6	104,6
me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	82,0	91,7	1,6	103,1
boshqa xizmatlar	120,8	138,7	2,3	108,2

2023- yil yanvar – iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida savdo xizmatlari 23,1 %, moliyaviy xizmatlar – 23,1 %, transport xizmatlari – 21,7 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari – 5,5 %, ta’lim sohasidagi xizmatlar – 5,5 % ni egallaydi.

Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-iyun oylarida xizmatlarning umumiy hajmida savdo xizmatlari 24,5 %, transport xizmatlari – 23,2 %, moliyaviy xizmatlar – 20,2 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 5,3 %, ta'lim xizmatlari – 5,5 % ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari

Savdo xizmatlari – hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalar, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

2023-yil yanvar-iyun oylarida savdo xizmatlari hajmi 1 356,1 mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan ushbu xizmatlarning o'sish sur'ati 103,3 % ga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 23,1 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar hajmi, mlrd. so'mda



O'sish sur'ati



Shahar va tumanlar kesimida savdo xizmatlari hajmi (2023-yil yanvar-iyun)

Shahar va tumanlar	Hajm mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, 2022- yil yanvar-iyun oyiga nisbatan % da
Xorazm viloyati	**1 356,1**	**103,3**
Urganch shahri	326,7	101,6
Xiva shahri	87,0	109,9
tumanlar:		
Bog'ot	82,5	93,3
Gurlan	89,6	109,3
Qo'shko'pir	91,6	114,0
Urganch	140,6	98,5
Hazorasp	105,4	98,6
Tuproqqal'a	45,4	121,4
Xonqa	112,9	114,7
Xiva	76,4	103,5
Shovot	71,4	96,1
Yangiariq	68,5	99,7
Yangibozor	58,1	98,7

Avtomobil transporti xizmatlari

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo‘lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo‘lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo‘yicha xizmatlar va ko‘chish bo‘yicha xizmatlar kiradi.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1 274,4 mlrd. so‘mga yetdi.

2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan ushbu xizmatlarning o‘sish sur’ati 101,2 % ga yetdi. Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 21,7 % ni tashkil etdi.





Shahar va tumanlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari
(2023- yil yanvar-iyun)

Shahar va tumanlar	*Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘mda*	*Ulushi, % da*	*O‘sish sur’ati, % da*
Xorazm viloyati	**1 274,4**	**100,0**	**101,2**
Urganch sh	309,6	24,3	103,1
Xiva sh	39,5	3,1	102,5
Bog‘ot	103,7	8,1	100,1
Gurlan	90,9	7,1	100,5
Qo‘shko‘pir	79,7	6,3	101,6
Urganch	94,2	7,4	100,4
Hazorasp	97,3	7,6	100,0
Tuproqqal’a	35,3	2,8	108,8
Xonqa	123,7	9,7	102,7
Xiva	79,9	6,3	100,1
Shovot	79,6	6,2	107,8
Yangiariq	69,9	5,5	102,8
Yangibozor	71,1	5,6	105,7

Moliyaviy xizmatlar

Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to‘lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo‘yicha xizmatlari uchun to‘lanadigan haq hisobiga ko‘ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlarning hajmi 1 359,5 mlrd. so‘mga yetdi. Jami ko‘rsatilgan xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi 23,1 % ni tashkil etdi. Jami moliyaviy xizmatlarning o‘sish sur’ati 127,9 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning tarkibi
(2023- yil yanvar-iyun)



Moliyaviy xizmatlar tarkibida sug‘urta va nafaqa ta’minoti bo‘yicha xizmatlardan tashqari (pul mablag‘larini olish va qayta taqsimlash bo‘yicha xizmatlar) ustunlik qiladi. 2023- yil yanvar-iyun oylarida ularning ulushi 87,0 % ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida moliyaviy xizmatlar tarkibi *(2023- yil yanvar-mart)*

Shahar va tumanlar	*Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘mda*	*Ulushi, % da*	*O‘sish sur’ati, % da*
Xorazm viloyati	**1 359,5**	**100,0**	**127,9**
Urganch sh	751,9	55,3	129,3
Xiva sh	28,9	2,1	138,7
Bog‘ot	40,1	2,9	126,9
Gurlan	31,1	2,3	135,4
Qo‘shko‘pir	33,8	2,5	128,4
Urganch	68,1	5,0	131,3
Hazorasp	130,8	9,6	126,8
Tuproqqal’a	20,7	1,5	132,7
Xonqa	71,7	5,3	119,4
Xiva	57,2	4,2	117,9
Shovot	59,4	4,4	131,2
Yangiariq	41,7	3,1	118,4
Yangibozor	24,1	1,8	117,7

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi – amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarning daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig‘indisi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 324,5 mlrd. so‘m darajasida qayd etildi va 2022- yilning yanvar-iyuniga nisbatan o‘sish sur’ati 124,8 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘mda



O‘sish sur’ati



Shahar va tumanlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari *(2023-yil yanvar-iyun)*	Hajm, mlrd. so‘mda	Ulushi, % da	O‘sish sur’ati,% da
Xorazm viloyati	324,5	100,0	124,8
Urganch sh	56,1	17,3	118,6
Xiva sh	15,0	4,6	117,4
Bog'ot	25,2	7,8	126,9
Gurlan	22,9	7,0	126,5
Qo'shko'pir	26,5	8,2	126,3
Urganch	31,4	9,7	127,4
Hazorasp	29,4	9,1	126,5
Tuproqqal'a	8,6	2,6	128,6
Xonqa	28,7	8,8	126,9
Xiva	22,8	7,0	127,0
Shovot	25,9	8,0	126,7
Yangiariq	18,1	5,6	125,9
Yangibozor	13,9	4,3	127,2

Ta’lim sohasidagi xizmatlar

Mazkur seksiya kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek Internet tarmog‘i va pochta yozishmalari orqali davlat tomonidan beriladigan yoki xususiy turli darajadagi ta’limni va turli kasblarga o‘rgatishni o‘z ichiga oladi. Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta’lim, shuningdek, kattalar uchun ta’lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta’limni qo‘llab-quvvatlash faoliyati va boshqalar kiradi.

Ta’lim sohasidagi xizmatlar faoliyatini amalga oshirishda ko‘rsatilgan bozor xizmatlari, jumladan, masofaviy ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish qiymati (kontrakt o‘qitish shakli) aks ettiriladi.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida ta’lim sohasidagi xizmatlar hajmi 321,3 mlrd. so‘mga yetdi. 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati 105,7 % ni tashkil etgan.

Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘mda



O‘sish sur’ati



Shahar va tumanlar kesimida ta’lim sohasidagi xizmatlar hajmi
(2023-yil yanvar-iyun)

Shahar va tumanlar	Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘mda	Ulushi, % da	O‘sish sur’ati, % da
Xorazm viloyati	**321,3**	**100,0**	**105,7**
Urganch sh	215,7	67,1	106,8
Xiva sh	43,3	13,5	107,3
Bog‘ot	6,5	2,0	101,7
Gurlan	2,8	0,9	100,0
Qo‘shko‘pir	6,5	2,0	105,9
Urganch	11	3,4	100,6
Hazorasp	5,4	1,7	102,3
Tuproqqal’a	2,1	0,7	103,8
Xonqa	10,8	3,4	104,1
Xiva	4,2	1,3	102,5
Shovot	4,4	1,4	108,9
Yangiariq	4,9	1,5	103,4
Yangibozor	3,7	1,1	102,3

Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog‘liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko‘rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi 130,3 mlrd. so‘mga ya’ni, ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining 2,2 % iga yetdi. 2022- yilga nisbatan o‘sish sur’ati 111,1 % ni tashkil etgan.

Taqqoslash uchun: 2022- yilda ushbu xizmatlar hajmi 100,4 mlrd. so‘mni yoki ularning umumiy hajmining 2,1 % ini tashkil etgan.

Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘mda



O‘sish sur’ati



Shahar va tumanlar kesimida sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi,
(2023- yil yanvar-iyun)

	Hajm mlrd. so‘mda	O‘sish sur’ati, 2022- yil yanvar-iyun oyiga nisbatan % da
Xorazm viloyati	**130,3**	**111,1**
Urganch shahri	75,5	118,4
Xiva shahri	2,7	113,8
tumanlar:		
Bog‘ot	3,2	112,8
Gurlan	3,3	109,4
Qo‘shko‘pir	4,1	103,5
Urganch	24,7	109,3
Hazorasp	2,1	102,2
Tuproqqal’a	0,8	103,4
Xonqa	5,4	101,0
Xiva	2,5	109,9
Shovot	2,5	103,8
Yangiariq	1,9	105,1
Yangibozor	1,6	100,4

Sog‘liqni saqlash sohasidagi ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi Urganch shahrida – 75,5 %, Urganch tumanida – 24,7 %, Xonqa tumanida – 5,4 % ni tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta’minlash bo‘yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo‘yicha qo‘yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o‘z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo‘yicha xizmatlar hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta’minlash bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o‘z ichiga oladi.





2022-yil yanvar-iyun oyiga nisbatan 2023-yil yanvar-iyun oylarida yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar hajmi 46,2 mlrd. so‘mga oshib, 187,9 mlrd. so‘mga yetdi, o‘sish sur’ati esa 103,4 % ni tashkil etdi.

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar tarkibi

Shahar va tumanlar kesimida yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar *(2022- yil yanvar-iyun)*

Shahar va tumanlar	*Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘mda*	*Ulushi, % da*	*O‘sish sur’ati, % da*
Xorazm viloyati	**187,9**	**100,0**	**103,4**
Urganch sh	77,1	41,0	102,2
Xiva sh	22,3	11,9	101,6
Bog‘ot	5,5	2,9	100,9
Gurlan	5,5	2,9	105,2
Qo‘shko‘pir	4,8	2,6	107,2
Urganch	28,9	15,4	100,9
Hazorasp	8,7	4,6	107,0
Tuproqqal’a	3,7	2,0	102,8
Xonqa	5,0	2,7	103,4
Xiva	7,6	4,0	100,6
Shovot	9,9	5,3	100,9
Yangiariq	3,7	2,0	102,0
Yangibozor	5,2	2,7	105,8

Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar

Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlarni ko‘rsatishda ko‘chmas mulk bilan bog‘liq operatsiyalar bo‘yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo‘jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko‘chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar hajmi 141,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi 2,4 % ni tashkil etdi. 2022- yilga nisbatan o‘sish sur’ati 106,1 % ni tashkil etgan.





Shahar va tumanlar kesimida ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar hajmi *(2023-yil yanvar-iyun)*

	Hajm mlrd. so‘mda	O‘sish sur’ati, 2022- yil yanvar-iyun oyiga nisbatan % da
Xorazm viloyati	**141,8**	**106,1**
Urganch shahri	49,1	106,8
Xiva shahri	8,4	105,6
tumanlar:		
Bog‘ot	7,3	102,3
Gurlan	8,6	101,5
Qo‘shko‘pir	10,1	106,5
Urganch	8,5	102,8
Hazorasp	11,5	104,6
Tuproqqal’a	4,1	103,3
Xonqa	7,3	102,8
Xiva	6,2	100,3
Shovot	6.0	105,4
Yangiariq	5,8	101,3
Yangibozor	8,9	104,0

Shahar va tumanlar o‘rtasida ko‘chmas mulk bilan bog‘liq ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida Urganch shahrining ulushi 49,1 % ni tashkil etdi. Hazorasp 11,5 % ni va Qo‘shko‘pir tumanida 10,1 % ni tashkil etdi.

2022-yilga nisbatan ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlarning o‘sish sur’ati Urganch shahrida – 106,8 % ga, Xiva shahrida – 105,6 % darajasida qayd etildi.

Ijara xizmatlari

Ijara xizmatlari bo‘yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

2022-yil yanvar-iyunga nisbatan ijara xizmatlari hajmi 10,8 mlrd. so‘mga oshib, 2023-yil yanvar-iyunda 106,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi 1,8 % ni tashkil etdi. 2022- yilga nisbatan o‘sish sur’ati 102,7 % ni tashkil etgan.

Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘mda



O‘sish sur’ati



Shahar va tumanlar kesimida ijara xizmatlar hajmi
(2023-yil yanvar-iyun)

Shahar va tumanlar	Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘mda	Ulushi, % da	O‘sish sur’ati, % da
Xorazm viloyati	**106,7**	**100,0**	**102,7**
Urganch sh	48,5	45,4	109,5
Xiva sh	3,8	3,6	103,1
Bog‘ot	5,5	5,2	102,5
Gurlan	4,1	3,8	100,4
Qo‘shko‘pir	4,5	4,2	101,2
Urganch	5,2	4,9	102,2
Hazorasp	4,4	4,1	100,4
Tuproqqal’a	3,6	3,4	103,1
Xonqa	5	4,7	104,0
Xiva	5,3	5,0	102,8
Shovot	5,2	4,9	101,6
Yangiariq	7,1	6,6	100,9
Yangibozor	4,5	4,2	101,9

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko 'rsatish, kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyafzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

2023-.yilning yanvar-iyun oylarida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi 235,2 mlrd. so'm qayd etilib, 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati 105,8 % ni tashkil etdi.





Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar hajmi va o'sish sur'ati
(2023- yil yanvar-iyun)

Urganch shahrida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi 52,8 mlrd. so'mga yetdi.

2022-yilga nisbatan Urganch shahrida o'sish sur'ati 117,2 % ni, Qo'shko'pir tumanida bu ko'rsatkich 108,4 % ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar	*Xizmatlar hajmi, mlrd. so'mda*	*Ulushi, % da*	*O'sish sur'ati, % da*
Xorazm viloyati	**235,2**	**100,0**	**105,8**
Urganch sh	52,8	22,4	107,9
Xiva sh	16,9	7,2	104,8
Bog'ot	26,8	11,4	107,1
Gurlan	17,9	7,6	116,0
Qo'shko'pir	16,0	6,8	109,2
Urganch	15,5	6,6	105,5
Hazorasp	11,0	4,7	109,0
Tuproqqal'a	4,7	2,0	110,9
Xonqa	14,3	6,1	102,7
Xiva	19,1	8,1	106,9
Shovot	14,1	6,0	100,6
Yangiariq	13,5	5,7	101,7
Yangibozor	12,6	5,4	103,5

Shaxsiy xizmatlar

Shaxsiy xizmatlar hajmi to‘qimachilik va mo‘ynali buyumlarni yuvish va kimyoviy tozalash bo‘yicha, sartaroshxona va go‘zallik salonlari, dafn marosimlarini tashkil qilish xizmatlari va shu bilan bog‘liq xizmatlar jismoniy komfortni ta'minlash bo‘yicha xizmatlarni va boshqa guruhlarga kiritilmagan boshqa shaxsiy xizmatlarning qiymatini o‘z ichiga oladi.

2022- yil yanvar-iyunga nisbatan Shaxsiy xizmatlar hajmi 43,8 mlrd. so‘mga oshib, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida 209,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi 3,6 % ni tashkil etdi. 2022- yil yanvar-iyunga nisbatan o‘sish sur’ati 104,6 % ni tashkil etgan.

Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘mda



O‘sish sur’ati



Shahar va tumanlar	Hajm mlrd. so‘mda	O‘sish sur’ati, 2022- yil yanvar-iyun oyiga nisbatan % da
Xorazm viloyati	**209,2**	**104,6**
Urganch shahri	54,6	109,1
Xiva shahri	12,9	105,0
tumanlar:		
Bog‘ot	26,0	112,2
Gurlan	12,0	102,4
Qo‘shko‘pir	14,6	107,8
Urganch	11,4	103,8
Hazorasp	9,8	102,8
Tuproqqal’a	2,7	103,2
Xonqa	12,8	106,7
Xiva	15,0	105,1
Shovot	13,4	106,2
Yangiariq	13,2	103,5
Yangibozor	10,8	104,2

2023-yilning yanvar-iyun oylarida Shaxsiy xizmatlarning umumiy hajmida Urganch shahrining ulushi 26,1 % ni tashkil etdi

Xizmatlar sohasi texnologiyalari va tarmoq tuzilmasining murakkablashishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifati va xilma-xilligini yaxshilash, shuningdek, yuqori texnologiyali va intensiv xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining jadal rivojlanishi korxona, tashkilot va xo‘jaliklarning samaradorligi va raqobatbardoshligini yanada oshirishga, aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.